

O'QUVCHILARDA METAKOGNITIV STRATEGIYALAR ORQALI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada metakognitiv strategiyalarning psixologik mohiyati ochib berilib, ular orqali intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida metakognitiv strategiyalarni qo'llash usullari va pedagogik - psixologik tavsiyalar bayon qilingan. Bundan tashqari, metakognitsiyaning o'quv motivatsiyasi, hissiy-regulyator omillar va ijtimoiy-kognitiv kontekst bilan o'zaro ta'siri ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Metakognitsiya, metakognitiv strategiyalar, intellektual qobiliyatlar, o'z-o'zini tartibga solish xususiyati, refleksivlik va ongli nazorat, strategik moslashuvchanlik, metamotivatsion funktsiya, hissiy regulyatsiya bilan aloqadorlik, self-explanation texnikasi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ МЕТАКОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ

Аннотация. В данной статье раскрыта психологическая сущность метакогнитивных стратегий и освещены механизмы развития через них интеллектуальных способностей. Также изложены методы применения метакогнитивных стратегий в образовательном процессе и педагогико - психологические рекомендации. Кроме того, было проанализировано взаимодействие метапознания с мотивацией обучения, эмоционально-регуляторными факторами и социально-когнитивным контекстом.

Ключевые слова: метапознание, метакогнитивные стратегии, интеллектуальные способности, особенность саморегуляции, рефлексивность и сознательный контроль, стратегическая гибкость, метамотивационная функция, связь с эмоциональной регуляцией, техника самовоспроизведения.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES IN STUDENTS THROUGH METACOGNITIVE STRATEGIES

Annotation. This article reveals the psychological essence of metacognitive strategies, through which the mechanisms for the development of intellectual abilities are covered. Also, methods of applying metacognitive strategies in the educational process and pedagogical - psychological recommendations are described. In addition, the interaction of metacognition with educational motivation, emotional-regulatory factors and socio-cognitive context has also been analyzed.

Keywords: metacognition, metacognitive strategies, intellectual abilities, self-regulation property, reflexivity and conscious control, strategic flexibility, metamotivative function, emotional regulation engagement, self-exploration techniques.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini har tomonlama va izchil rivojlantirish ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va yuqori malakali kadrlar bozoridagi raqobat o'quvchilardan nafaqat puxta bilimga, balki mustaqil fikrlash, analitik yondashuv va ijodkorlik kabi yuqori tartibli kognitiv ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu bois ta'lim

302 jarayoni faqat tayyor bilimlarni uzatish yoki faktologik ma'lumotlarni yod oldirish bilan chegaralanmaydi; aksincha, o'quvchining o'rganish faoliyatini tartibga soluvchi tashkiliy, metakognitiv hamda motivatsion omillar kompleks ravishda hisobga olingan holda tashkil etilishi zarur.

Metakognitsiya - bu insonning o'z fikrlash jarayoni haqida fikrlashi, uni anglab yetishi, nazorat qilishi va boshqarishi bilan bog'liq murakkab psixologik mexanizm bo'lib, u o'quvchining o'quv faoliyatini ongli, maqsadga yo'naltirilgan va refleksiv tarzda amalga oshirishiga yordam beradi. Metakognitiv jarayonlar o'quvchiga "Men qanday o'qiyapman?", "Qaysi strategiya men uchun eng samarali?", "Muammo nimada va uni qanday hal qila olaman?" kabi savollarga mustaqil javob topish imkonini beradi. Natijada, o'quvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, o'quv jarayonidagi xatolarni aniqlab, ularni bartaraf etish uchun mos strategiyalarni tanlay oladi. Shu sababli, metakognitiv strategiyalarni ta'lim jarayoniga izchil va ilmiy asosda integratsiya qilish o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida qaraladi. Bu strategiyalar orqali o'quvchilar nafaqat bilimni o'zlashtiradi, balki o'z-o'zini boshqarish, rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va refleksiya kabi intellektual faoliyatning muhim komponentlarini ham rivojlantiradilar. Metakognitiv yondashuvlar o'quv jarayonini shaxsning faol kognitiv ishtirokiga aylantirib, uni ijodiy fikrlashga, muammolarni chuqur tahlil qilishga va turli vaziyatlarga moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishga yo'naltiradi.

Shuningdek, metakognitsiya o'quvchilarda o'rganishga nisbatan ichki motivatsiya shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, chunki o'quvchi o'z yutuqlari va kamchiliklari ustida ongli ishlagan sari o'qishga bo'lgan ishtiyoqi mustahkamlanadi. Natijada, bilim olish jarayoni tashqi talab yoki majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy o'sishning qadriyatli jarayoni sifatida qabul qilina boshlaydi. Umuman olganda, metakognitiv strategiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etish zamonaviy pedagogik psixologiyaning innovatsion yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning fikrlash jarayonini ongli boshqarish orqali intellektual, ijtimoiy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitsiya tushunchasi 1970-1980-yillardan boshlab psixologiyada keng o'rganila boshlandi. Metakognitsiyaning ikki asosiy komponenti aniqlanadi:

- 1) metakognitiv bilim (o'z bilimi va vaziyat haqidagi bilimlar - tashkiliy, strategik va shaxsiy jihatlar)
- 2) metakognitiv nazorat/proseduralar (rejalashtirish, monitoring, baholash).

O'quv jarayonida metakognitiv bilim o'quvchiga qanday strategiyalarni qachon va qanday qo'llashni belgilashga yordam beradi; nazorat funksiyalari esa o'qish faoliyatini yo'naltirish va sozlash uchun zarur.

Intellektual qobiliyatlar - tushunish, tahlil qilish, sintez, muammolarni hal etish, mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash kabi kognitiv komponentlarni o'z ichiga oladi. Metakognitiv strategiyalar ushbu komponentlarni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'quvchidan o'z fikrlash jarayonini ongli ravishda boshqarishni talab qiladi. Shu tariqa, metakognitsiya va intellektual qobiliyatlar o'rtasida o'zaro kuchli bog'liqlik mavjud.

Ilmiy adabiyotlarda metakognitiv strategiyalarning psixologik xususiyatlari turlicha tasniflanadi:

1. O'z-o'zini tartibga solish xususiyati. Metakognitiv strategiyalar o'quvchiga o'z faoliyatini rejalashtirish, vaqtni taqsimlash, resurslarni aniqlash va o'rganish jarayonini boshqarish imkonini beradi. Bu xususiyat o'quvchida o'ziga xos mustaqillik va javobgarlikni rivojlantiradi.

2. Refleksivlik va ongli nazorat. Metakognitsiya refleksiv fikrlashni rag'batlantiradi - o'quvchi o'z fikrlash jarayonini tahlil qilib, xatolarni aniqlashi va tuzatishi mumkin. Bu esa kognitiv xatoliklar va noto'g'ri tushunchalarning kamayishiga olib keladi.

3. Strategik moslashuvchanlik. Metakognitiv bilim yordamida o'quvchi turli vaziyatlarga mos strategiyalarni tanlaydi va zarur paytda ularni o'zgartiradi. Bu ijodiy va tanqidiy tafakkurni qo'llab-quvvatlaydi.

4. Metamotivatsion funktsiya. Metakognitiv strategiyalar o'quvchining motivatsiyasini yuqoriga ko'targan holda, o'z-o'zini rag'batlantirish va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur yavrlarni (feedback) tashkil etadi. O'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati motivatsion barqarorlikni ta'minlaydi.

5. Hissiy regulyatsiya bilan aloqadorlik. Metakognitsiya stressni boshqarish, o'rganishdagi asabiylikni kamaytirish, va e'tiborni yo'naltirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, intellektual vazifalar bajarishda muhimdir.

Muhokama. Bizningcha, metakognitiv strategiyalar o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini bir nechta psixologik mexanizmlar orqali rivojlantiradi:

1. O'qitish va mustahkamlash orqali avtomatlashtirish. Rejalashtirish va monitoring jarayonlari boshlang'ich bosqichda kognitiv yukni oshiradi, lekin takroriy joriy etishda ular avtomatlashtiriladi va o'qitilayotgan kontentni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2. O'rganish strategiyalarining optimallashtirilishi. Metakognitsiya o'quvchiga samarali o'qish strategiyalarini tanlash imkonini beradi: masalan, ma'lumotni sintez qilish, muhimga e'tibor qaratish, kontentni strukturalash. Bu esa yuqori tartibli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Xatolardan foydalanish va qayta baholash. Monitoring va baholash funksiyalari o'quvchiga xatolarni aniqlash va ularni o'rganish imkonini beradi. Bu o'z navbatida metakognitiv o'sishga va intellektual ko'nikmalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

4. Transfer va generalizatsiyalash. Metakognitiv bilimlar o'quvchiga olingan strategiyalarni yangi vaziyatlarga moslashtirishni o'rgatadi, natijada o'rganilganlar boshqa muammolarni hal qilishda ham samarali ishlaydi.

5. Metakognitiv dialoglar va ijtimoiy meditatsiya. Guruh muhokamalari, o'qituvchi bilan refleksiv savollar almashinuvi va o'z-o'zini sharhlash (self-explanation) orqali o'quvchilar o'z fikrlarini razmiy qilishadi va yuqori darajadagi kognitiv strukturani shakllantiradi.

Ta'lim jarayonida metakognitiv strategiyalarni joriy etish uchun amaliy usullar:

1. Rejalashtirish. Har bir topshiriq oldidan o'quvchi nima o'rganishi, qanday resurslar kerakligi, qancha vaqt ajratilishi va qanday baholash mezonlari bo'lishi kerakligini rejalashtiradi. O'qituvchilar buni model qilib ko'rsatishi va boshlang'ichda qo'llab-quvvatlashi lozim.

2. Monitoring qilish. O'qish jarayonida o'quvchi o'z tushunishini muntazam tekshiradi: "Men nima tushundim?", "Qaysi joy men uchun qiyin?", "Qaysi strategiya samaraliroq bo'ldi?" kabi savollarni o'rnatadi. O'qituvchilar o'quvchilarga monitoring uchun yozma checklistlar, self-check savollar yoki o'z-o'zini baholash varaqalarini beradi.

3. Baholash va refleksiya. Vazifa tugagach, o'quvchi o'z ishini baholaydi: maqsadga erishildi mi yoki yo'q, nimani yaxshilash kerak, keyingi safar qanday strategiya qo'llash kerak. Refleksiya jarayonini yozma shaklda tashkil etish (learning journal) samarali natija beradi.

4. Self-explanation texnikasi. O'quvchi o'rganayotgan kontentni o'z so'zlari bilan tushuntirib beradi. Bu metod orqali ular tushunchalarni chuqurroq qidiradi va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlaydi.

5. O'qituvchi modelini qo'llash. O'qituvchi o'z metakognitiv jarayonlarini ochib beradi: u qanday rejalashtiradi, qanday xato tekshiradi, qanday o'zgartirish qiladi - bularni sinfda ochiq muhokama qiladi. Modeling - metakognitiv ko'nikmalarni o'rgatishdagi eng samarali usullardan biridir.

6. Guruh ishlari va hamkorlik. Guruh muhokamalari, fikr-mulohazalar almashinuvi orqali o'quvchilar bir-birining strategiyalarini kuzatib, o'rganishadi. Bu ijtimoiy metakognitsiya deb ataladi va muammolarni birgalikda hal etishda foydali.

7. Metakognitiv savollar va rubrikalar. O'qituvchilar baholash jarayonida metakognitiv savollarni qo'llashi mumkin: "Qaysi strategiya sen uchun samarali bo'ldi?", "Nima sababdan bu natija paydo bo'ldi?" Shuningdek, baholash rubrikalari o'quvchilarga aniq mezonlar asosida o'z ishlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Metakognitiv strategiyalarni joriy etishda bir qator psixologik to'siqlar paydo bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilarning metakognitiv ongining yetishmasligi. Ba'zi o'quvchilar o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishni bilishmaydi. Bunday holda bosqichma-bosqich metakognitiv ko'nikmalarni o'rgatish lozim.

2. Motivatsiya yetishmasligi. O'quvchilarning past motivatsiyasi metakognitiv vazifalarni bajarishga to'sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi vazifaning maqsadi va natijasini aniq ko'rsatishi, shuningdek, kichik muvaffaqiyatlarni rag'batlantirishi kerak.

3. Vaqt va resurs cheklavlari. Metakognitiv mashqlar ko'proq vaqt talab qilishi mumkin - ta'lim jarayonining rejalashtirishida bu hisobga olinishi lozim. O'qituvchilar qisqa, ammo samarali metakognitiv yondashuvlarni tanlashlari mumkin.

4. O'qituvchilarning tayyorgarligi. Metakognitiv strategiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun o'qituvchilarning o'zi ham metakognitiv ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shu bois pedagogik kadrlar uchun maxsus treninglar tashkil etish muhimdir.

5. Kognitiv yukning ortishi. Boshlang'ich bosqichlarda metakognitiv jarayonlar o'quvchidan qo'shimcha kognitiv resurslarni talab qiladi. Bu holatni yumshatish uchun vazifalarni modularlashtirish va qo'llab-quvvatlovchi vositalardan foydalanish zarur.

Xulosa. Ta'lim jarayonida metakognitiv strategiyalar samaradorligini baholash quyidagi indikatorlar orqali amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarning mustaqil rejalashtirish va vaqtni boshqarish qobiliyati.
2. Self-explanation va refleksiya sifatining oshishi.
3. Test va topshiriqlar natijalarida barqaror yaxshilanish.
4. Transfer vazifalarida muvaffaqiyat (yangi vaziyatlarda olgan bilimni qo'llash).
5. Hissiy-ixtisosiy o'zgarishlar: stress darajasining kamayishi, o'rganishga nisbatan ishtiyoqning oshishi.

6. Baholash metodlari: yozma refleksiya, o'z-o'zini baholash varaqalari, pedagogik kuzatuv, test natijalari tahlili, fokus-guruh intervyulari va portfoliolar. Shu bilan birga, metakognitiv o'sishni o'lchash uchun maxsus standartlashtirilgan vositalar ham qo'llanilishi mumkin.

Metakognitiv strategiyalarni joriy etish bo'yicha pedagogik-psixologik tavsiyalar:

1. Bosqichma-bosqich yondashuv. Metakognitiv ko'nikmalarni kichik bosqichlardan boshlash va asta-sekin murakkablashtirish kerak. Dastlab o'qituvchi model qilib ko'rsatadi, keyin qo'llab-quvvatlaydi, so'ng mustaqil ishlashga o'tkazadi.

2. Kontekstga moslashtirish. Turli fanlar va yosh guruhlar uchun mos strategiyalar tayyorlash lozim. Masalan, matematika va til fani uchun monitoring va self-explanation turlicha tarzda qo'llanilishi mumkin.

3. O'quvchining ovozi kuchaytirish. O'quvchilarning o'z-o'zini baholashlari va refleksiyalarini sinfda doimiy ravishda muhokama qilish ularning metakognitiv ongini oshiradi.

4. Texnologiyalardan foydalanish. Raqamli platformalar, o'rganuvchi jurnal dasturlari va interaktiv vositalar metakognitiv jarayonlarni qo'llab-quvvatlashda yordam beradi - vaqtni kuzatish, progressni qayd etish va feedback olish imkonini yaratadi.

5. Ijoiy pedagogik muhit. Xato qilishdan qo'rqqanlik, tajriba va eksperimentlarga ruxsat berish metakognitiv strategiyalarni sinab ko'rish va rivojlantirish uchun muhim shartdir.

6. O'qituvchilarga treninglar. Pedagoglar uchun metakognitiv yondashuvlarni o'rgatish va ularni amalda qo'llash bo'yicha muntazam sifatli treninglar tashkil etish kerak.

Metakognitiv strategiyalar o'quvchilarda intellektual qobiliyatlarni tizimli, ongli va uzoq muddatli ravishda rivojlantirishning samarali vositasidir. Ular o'qish jarayonini tashkillashtirish, monitoring qilish va baholash orqali yuqori tartibli fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Metakognitsiyaning psixologik xususiyatlari - o'z-o'zini tartibga solish, refleksivlik, strategik moslashuvchanlik, metamotivatsion va hissiy-regulyator funksiyalar - bu jarayon muvaffaqiyatining asosiy omillaridir.

Metakognitiv strategiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuv, o'qituvchilarni tayyorlash, o'quvchilarning motivatsiyasini rag'batlantirish va texnologik vositalardan samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, baholash tizimlari

metakognitiv ko'nikmalarni o'lchash va ularni rivojlantirish bo'yicha aniq indikatsiyalarni berishi lozim.

Kelajak tadqiqotlari metakognitiv strategiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va yosh xususiyatlari bo'yicha farqlari, shuningdek, texnologik vositalar orqali metakognitsiyani qo'llab-quvvatlashning samaradorligini aniqroq ko'rsatishga qaratilishi mumkin. Metakognitsiyaga asoslangan ta'lim yondashuvlari zamonaviy ta'limning samaradorligini oshirish va o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Зак А. З. Психология одаренности детей и подростков, издательство Институт психологии РАН, Москва, 2000. 367 с.
- 2 Кабанова-Меллер Е. Н. Формирование умственных действий у школьников. Москва . Просвещение. 1962. 210 с.
- 3 Коняхин А.В. Тренинг интеллектуальных способностей: задачи и упражнения. - СПб.: Питер, 2007. – 128 с.
- 4 Петров А.В. Дискуссия и принятие решений в группе: Учебно - методическое пособие. – СПб.: Речь, 2005. - 80 с.
- 5 Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry, American Psychologist, Washington, 1979. 34(10), p. 906-911.